

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OLAMNING LISONIY MANZARASI
VOQELASHUVIDA "HEAD/ BOSH" SOMATIZMIGA OID XULOSALAR

Halimova M.M
*Andijon davlat chet
tillari instituti f.f.f.d. (PhD)*

Insonning ongli kognitiv faoliyatlari mahsuli bo'lgan, barcha yoki ayrim xalqlar konseptosferasidan o'rin olgan konseptlar ichki va tashqi olamning biror bo'lagi haqidagi bilimlar majmuini tashkil etadigan mental birlikdir. Konsept mazmunli bo'lib, uning asosida predmet yoki hodisaga xos belgi-xususiyatlar yotadi. Ushbu belgi va xususiyatlar konseptning verballashmagan konseptual maydonini tashkil etadilar. Konseptual maydon ochiq sistema bo'lib, uning miqyosi yangi aniqlangan belgi xususiyatlar hisobiga kengayib boradi. Olamning biror bo'lagi manzarasini tashkillovchi belgi obyektiv va subyektiv xususiyatlar yoki attributlar tilda verballashadi. Shu jihatdan konseptning mazmun mundariyasi tushunchadan keng bo'lib, konsept predmet, hodisaning ma'lum bo'lgan barcha belgilarini o'zida aks ettirsa, tushuncha uning eng muhim va ahamiyatli belgilarini ifoda etadi. Har ikki holda ham konseptlar va tushunchalar semalari qatori kengayib, boyib borish xususiyatiga ega bo'lib, bu hol lisoniy verbalizatorlarning formal ifoda vositalari, ma'nolari kengayib, yorqinlashib borishiga sabab bo'ladi. Konsept, tushuncha, ma'no, mental (fikrlash) faoliyat, umumlashtirish natijasi sifatida namoyon bo'lsa, ma'no har bir til doirasida yuzaga keladi, voqelashadi va xususiylik kasb etadi. Konsept asosida tushuncha, obraz, kognitiv ma'no, obyektiv va subyektiv baholar yotadi. Demak, konsept, tushuncha, ma'no munosabatlarida izomorf va allomorf jihatlar mavjud bo'lib, ularni tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida bajarilayotgan tadqiqotlar jarayonida hisobga olish foydadan holi bo'lmaydi.

"Head/bosh" konsepti umum lisoniy konseptlar sirasiga kirib, chog'ishtirilayotgan tillarda izomorf va allomorf, odatiy va noodatiy konseptual belgi-xususiyatlar, muvofiq ravishda kognitiv semalarga ega. Bunday o'xshash va farqli jihatlar ushbu konsept lisoniy manzara olganda ham kuzatiladi. Bunday verbalizatorlar sodda va murakkab tuzilishga ega leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik va paremiologik birliklardan iborat bo'lib, ular turli yorqinlik darajalariga ega, turli kommunikativ vaziyatlar uchun xoslangan yoki xoslanmagan belgi xususiyatlarni obyektivlashtiruvchi yoki dekodlashtirish va turli diskurslarda qo'llash uchun xizmat qiladilar. Arxi belgi asosida shakllangan turli belgilar yig'indisi "bosh"ning konseptual maydonni lisoniy libos olishda xizmat qiluvchi birliklar uning nominativ maydonini tashkillaydi. Mazkur maydon verbalizatorlari yorqinlik va faollik darajasi va muloqot uchun zarurlik darajasiga ko'ra maydon satxi uzra turlicha o'rinlarni egallaydilar. Qiyoslanayotgan tillarda mazkur maydon dominant, markaz va pereferiya qismlaridan iborat. Maydon arxisemasi "head/bosh" so'z-representantlari orqali o'z ifodasini topadi. Ingliz va o'zbek tillarida so'z birikmalari dominant, tub, yasama va qo'shma so'zlar, sodda, murakkab tarkibli gaplar uning yadrosini, qo'shma yasama so'zlar frazeologik birliklar, paralingvistik vositalar, paremiyalar, bog'langan qo'shma gaplar va

matn asosan maydonning chet qismini tashkillaydilar. Maydon konstituentlari o'rtasida sifatiy va miqdoriy farqli jihatlar asosan ularning semik tarkibi, ularni ifodalash uchun bevosita yoki bilvosita xoslanganligi, lisoniy ifodasi, muloqot vaziyatlari bilan bog'liq vazifalarida namoyon bo'lmoqda. Chog'ishtiralayotgan tillardagi "head va bosh" konsepti verbalizatorlarini eksplitsit va implitsit ifoda vositalariga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillarida "head va bosh" leksemalari tana a'zosi birlamchi semantikasiga ega bo'lib, ularning mazmun mundarijasini tashkil etuvchi boshqa semalar umumiy va xususiy semalardan iborat. Ushbu leksemalar uchun izomorf semalar aql-xush, miya, boshliq, rahbar, hayvonlar soni, daryo, suv inshootlari boshlangan joy bo'lsa, aloqador semalar, og'riq, tanganing odam boshi tushirilgan tomoni, mixning qalpog'i kabilar ingliz tilida, ulkan, birinchi, yon, old tomon, narsalarning tepa(uch) qismi kabilar o'zbek tiligagina xosligi bilan e'tiborga loyiq. Bunday allomorf jihatlarining turli etnoslarning olamni idrok etish tarzi, interpretatsion salohiyati, turmush tarzi turlicha ekanligi bilan izohlanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan "head/bosh" konseptini verballashtiruvchi leksemalarning semik tarkibini integral va differensial tiplarga ajratish mumkin bo'ladi. Shuningdek, "head va bosh" semantikasiga ega leksemalar tarkibi nuqtai nazaridan, mono va polileksemalarga ajratish mumkin. Monoleksemalar har ikki tilda ot, sifat, fe'l, ravish, suffiksli va prefiksli monoleksemalarga bo'linsa, polileksemalar struktur jihatdan qo'shma, qo'shma-yasama, suffiksli, prefiksli va prefiks va suffiksli polileksemalar shaklida bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillarida o'zaro ma'nodoshlik munosabatida bo'lgan "head va bosh" leksemalarining 6 ta mavzuiy guruhlarini aniqlandi. Bunday mikroparadigmalar a'zolarining sinonimik munosabatga asoslangan qatorlari mavjud. (head-brain(s)-mind-pate-sconce, nut, noddle; bosh- kalla-peshona-miya-aql-xush va boshqalar). Qiyoslanayotgan tillarda ikki tarkibli qo'shma so'zlar, so'z birikmalari sinonimiyasi ko'p kuzatiladi. Head va bosh borasidagi mavjud bilimlarni idrok etish, tushinish jarayonlarini osonlashtirish, ularni qayta ishlash va muloqot amaliyotiga joriy etishda, ularning andozaviy (freym) tuzilmasi o'zbek tilidagi boshini ikkita qilmoq freymi va uning subfreymilari misolida yaratildi. Head va bosh, nod, shake leksemalarining munosabatlari, ularning atributiv va erkin so'z birikmalari tarkibidagi leksemalar bilan qovushish imkoniyatlari, bu orqali sodir bo'ladigan ma'noviy o'zgarishlar, ma'noviy nomuvofiqlikdir. Shuningdek, ushbu noodatiy jarayonga omil bo'luvchi analitik, sintetik-analitik, sintetik-analitik-sintetik usullar kuzatildi. O'zbek tilida bosh va unga qavm leksemalarni qovushtiruvchi vosita rolini asosan ko'makchilar, kelishik qo'shimchalar bajarishi, ingliz tilida esa bu vazifa predloglar va so'z tartibi zimmasida ekanligi dalillandi.